



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA VAQT KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Rahmanova Iroda Odiljonovna

<sup>1</sup>FDU, Gumanitar yo'nalishlar bo'yicha  
chet tillari kafedrası o'qituvchisi,

<sup>2</sup>Mamatkulova Xurshidabonu Anvarjon qizi

<sup>2</sup>Lingvistika ingliz tili yo'nalishi 2 kurs magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7302731>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> October 2022  
Accepted: 05<sup>th</sup> November 2022  
Online: 07<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Vaqt konsepti, tilshunoslik,  
tarjima, semantika, qiyoslash

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi vaqt tushunchasini qiyosiy tipologik, lingvokulturologik tadqiq qilish, ham nazariy ham amaliy jihatlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Til taraqqiyotining umumiy va o'ziga xos an'alarini aniqlashning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Vaqtning nutq vaziyati bilan aloqadorligi temporallikka oid masalalarni hal etish, ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida vaqtning lisoniy konseptuallashuvidagi tabiat hodisalari o'rganilgan.*

“Vaqt munosabatlari” semantik maydonida ifodalanadigan birikmalarning konnotativ tarkibi mohiyati mazkur konseptning umumiy va o'ziga xos tavsifini aniqlashga qaratiladi va bu konsept har bir tildagi so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birikmalar maqol va aforizmlarda namoyon bo'ladi va ular “vaqt” freym modeli ichida ko'riladi.

Muayyan til oilasiga tegishli bo'lgan va bo'lmagan tillar sistemasidagi turli til yaruslarini chog'ishtirib tadqiq qilish keyingi yuz yillikda keng tus olganligining boisi ham shundadir. Umuman, tuzilishi jihatdan qardosh bo'lgan va bo'lmagan tillarni qiyosiy tipologik tadqiq qilish ham nazariy ham amaliy nuqtai nazardan ahamiyatli hisoblanadi. Zero, bunday tadqiqotlar til taraqqiyotining umumiy va o'ziga xos an'alarini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy tipologiya bir tilda ma'lum grammatik shakllar orqali ifodalangan ma'no ikkinchi bir tilda qanday vositalar asosida ifodalanishi, ushbu chog'ishtirilayotgan tillardagi til

birikmalarining ma'no ko'lami jihatdan mos kelishikemasligini aniqlash uchun ham yordam beradi [2]. Albatta, qiyosiy tekshirishda qiyos uchun asos qilib olingan material ham ahamiyatlidir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

“Vaqt” konsepti “tillarda mujassamlashgan madaniy konseptlar” orasida yorqin ifodaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Chunki har bir etnosning, madaniyatning vaqt birliklarini ifodalovchi ko'plab til birliklari va frazeologik birikmalari mavjud. Shuningdek, vaqtni ifodalovchi til birliklarining u tildan bu tilga o'zlashishi, ba'zi birliklarning unversal atamaga aylanganligini kuzatish mumkin. Xususan, yigirma to'rt soat vaqtni ifodalaydigan “sutka” so'zi o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan. Mazkur tushunchani ifodalaydigan sof o'zbekcha atama uchramadi. Xuddi shu tushunchani beradigan atama ingliz tilida ham mavjud emasligi aniqlandi. Mazkur tushuncha ingliz tilida “twenty-four hours”, “over the



entire circadian period”, “day and night” kabi birikmalarda ifodalanadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Vaqt to'g'risidagi zamonaviy tushunchalar turli-tumandir. Bunga temporal konseptlarning turli tartibdagi tasniflari asos bo'ladi. Jumladan, harakat shakllarining mosligiga qarab vaqt fizik, geologik, mexanik, astronomik, biologik, ijtimoiy tarixiy, psixologik turlarda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, vaqt ob'ektiv (fizik) va sub'ektiv (psixologik) turlarga ajratiladi [1]. M.G. Lebedko temporal konseptlarni mazmun mohiyati va lingvomadaniy xususiyatlariga asoslangan holda quyidagicha tasniflaydi: vaqtning parametrik konseptlari (kun, tun, lahza va hakoza); insonning yoshi bilan bog'liq konseptlar (chaqoloqlik davri, bolalik davri, o'spirinlik davri va hakoza); monetar konsept (vaqtpul demakdir); etik normalar bilan bog'liq konseptlar (semerno odnogo ne jdut, letniy den god kormit); aksiologik konseptlar (bekorchilik bilan shug'ullanmoq; faoliyat bilan bog'liq konseptlar; makon va zamon konseptlari. «Til o'zlashtirish jarayonida predmet va xodisalarni nafaqat bevosita idrok etish mumkin, balki ularni tushunchalar, turli munosabatlar tizimiga kiritish imkoniyati ham tug'iladi. Bu esa o'z navbatida, ular (predmet - xodisalar) haqidagi bilim miqyosini kengaytiradi» [4]. Ushbu muallif e'tiroficha, bilimningsarchashmasi doimo harakatdir, yangidan-yangi ob'ektlarni idrok etishga yo'naltirilayotgan bilish harakati amaliy konsept shakllanishiga turtki bo'ladi.

O'zbek tilidagi uzoq so'zi makon belgisi bo'libgina qolmasdan temporal xususiyat ham kasb etadi. Mazkur birlikning temporal xususiyatiga e'tibor qaratamiz:

(o'zbek tili izohli lug'atida –vaqt e'tibori bilan davomli, katta, ko'p-ma'nosi keltiriladi va uzoq tikilmoq. uzoq suhbatlashmoq kabi ma'nolari keltiriladi) uzoq davom etdi – uzoq o'tmishda (badiiy adabiyotdan misollar topib tahlil etish) Temporal tushinchalar orasida durativlik kengroq semantikaga ega. Durativlikda vaqt oralig'i qisqa, uzun, davriy kabi ko'rinishlarda ifodalanishi mumkin. Shuning uchun ham, durativlik vaqt o'lchami tushinchasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Vaqtning nutq vaziyati bilan aloqadorligi temporallikka oid masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Michel van Lambalgen va Fritz Xamm mazkur hodisani farqlashga nisbatan fizik va biologik vaqt (physical time, biological time) tushinchalaridan foydalanadi [5].

Vaqtning konseptuallashuvi ingliz madaniyatida eksperimental hodisa sifatida qaraladi. Bu jarayon olamdagi ob'ektlar harakatining kechimiga bog'liq tarzda o'rganiladi. O'zbek lingvomadaniyatida vaqtning lisoniy konseptuallashuvi tabiat hodisalari va diniy qarashlar ta'sirida shakllangan degan farazni ilgari surish mumkin. Bunga quyidagi misollar isbot bo'lishi mumkin: qish chillasi, saraton pallasi, ramozon oyi, asad ekiningni yasat (avgust oyining ikkinchi yarmi), jovzada javrab o'lgan hukkim (aprel oyi, yog'ingarchilik mavsumi), ayoz majuz olti kun qahri kelsa qattiq kun (fevral oyining oxiri, mart oyining boshi) (Xalq og'zaki ijodi, M.J. Po'ltan). Vaqt tushunchasining tillarda farqlanishi bevosita g'arb va sharq xalqlarining tabiat hodisalarini tadqiq etish natijasida ushbu xalqlar ongida shakllangan hodisadir. Shuningdek, genetik jihatdan aloqador bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida vaqt tushunchasining



etnolingvistik xususiyatlari va ularning frazeologiya, etnosemantika, kognitiv metaforalarda ifodalanish jihatlarini aniqlash ham muhimdir. Misol uchun inglizlarda VAQT tushunchasi PUL (MONEY) domenida o'z ifodasini topadi. Ularning tushunchasida vaqtni bekor ketkazish "pulni behuda sarflash" bilan teng va aksincha, vaqtdan unumli foydalanish "pulni tejash" tushunchasi bilan bog'liq. Ko'rinadiki, ingliz madaniyatida ikkita alohida "vaqt", "pul" domenlari kognitiv xaritalash orqali umumiy bir domenga birlashishi natijasida ingliz tilida o'ziga xos metaforalar shakllangan degan fikr yotadi. Ma'lum bir etnosning lisoniy shakllanganligi, fikrlashi, mulohaza yuritishi, turmush tarzining yaqinligi yoki bir xilda ekanligi o'sha tilda shakllangan va mavjud kognitiv metaforalarni asosini tashkil etadi. Kognitiv metaforalarni shakllinishi esa, bevosita etnosemantika bilan uzviy aloqaga ega. Darhaqiqat, enantiosemiyani ayni rakursda tadqiq etish orqali uning lingvokognitiv, lingvokulturolik, etnolingvistik, sotsiolingvistik kabi omillar bilan bog'liq jihatlarini ayon bo'ladi. Zotan, "lisoniy birlikning mohiyati baholanar ekan, bu birlik mansub bo'lgan til egasining etnomadaniy va ijtimoiy xususiyatlarini nazardan soqit qilmaslik zarur. Enantiosemiyaning yuzaga kelishi ma'lum bir hududda yashovchi kishilarning lingvomadaniyati bilan ham bog'liq. Bunda

muayyan til birligi biror hudud kishilarining asrlar davomida shakllangan etik-estetik qarashlari, urf-odatlarini natijasida, bir so'z bilan aytganda, shu odamlardagi olamning lisoniy manzarasi bilan bog'liq holda, adabiy tildagidan farqli bo'lgan ma'noni ifodalaydigan bo'lib qoladi. Bu o'z navbatida vaqt tushunchasining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni baholovchi leksik birliklarning frazeologik birikmalarga ko'chishi, paremiologiyaning vujudga kelishiga ham sabab bo'ladi. Shunga o'xshash paremiologiyalar o'zbek tilida ham uchraydi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xullas, enantiosemiya leksikologiyaning yetarlicha murakkablik va o'ziga xoslikka ega bo'lgan hodisasidir. Uni tadqiq etish bilan tilshunoslikdagi muhim nazariy masalalar: shakl va mazmunning o'zaro munosabati, ziddiyat kategoriyasi yana bir tipining lisoniy mexanizmi, namoyon bo'lish yo'llari kabi masalalarga aniqlik kiritiladi. Dunyoning lisoniy manzarasi kishida u yashayotgan jamiyat va uning qonun-qoidalari, milliy mentalitet, unga xos turli etik-estetik talablar, qarashlar va boshqa omillar asosida shakllanadi. Demak, til kishining borliqni bir butun, yaxlit idrok etish vositasi bo'lib, uning yashash tarzi o'zidagina kechmay, balki inson va u hayot kechiradigan jamiyat urf-odatlarini, qonun-qoidalari, muayyan xalqning ijtimoiy-madaniy hayot tarzi bilan birgalikda kechadi.

### **References:**

1. Gak V.G. Tilshunoslik haqida // Chet el tilshunosligida yangilik. Nashr. 25: Qarama-qarshi tilshunoslik. M., 2019. B.5-17.
2. Falsafiy ensiklopedik lug'at 2019: 101
3. Telia V. N. Lingvokulturologiyaning asosiy postulatlarini // Filologiya va madaniyat: 2-stajorning materiallari. konf. 3-qism. Tambov, 2019. S. 14-15.



4. Mo`minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoi-lisoniy xususiyatlari. Filol. muxlis. dok. diss. T. 2010. 8-garov
5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya / V.A. Maslova: Talabalar uchun darslik. Yuqoriroq darslik -M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2011. - 208 b.
6. Lebedko M.G. Vaqt madaniyatning kognitiv dominantli sifatida. Amerika va Rossiya vaqtinchalik kontseptsiya sohalarini taqqoslash / - Vladivostok: Dalnevost nashriyoti. un-ta, 2012. - 240 b.]